Advances in Science and Education, 2025, 12–17

doi: 10.70728/edu.v01.i06.004
Volume 01, Issue 06
ISSN: 3060-5415
Paper

PAPER

ADABIYOT DARSLARIDA MILLIY VA UMUMMADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Haydarova Dilnozaxon Elmurot qizi [1]

[1]Qo‘qon davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

* dilnozaxonhaydarovaa@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim oluvchi o‘quvchilar (5-7-sinf) uchun adabiyot darslarida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari xususida so‘z boradi. Ayrim adabiy manbaalar orqali o‘quvchilarga milliy va umummadaniy qadriyatlarni singdirishning an’anaviy hamda zamonaviy usullari tadqiq etiladi. Adabiyot darslarida o‘qituvchining pedagogik faoliyatida o‘quvchi yoshi va ruhiy holati inobatga olinib, qaror topishi lozim bo‘lgan qadriyatlar ustida yangi metodlar ishlab chiqiladi.

Key words: Kompetensiya, kompetentlik, adabiy ta’lim, darslik va dastur, milliy va umummadaniy qadriyatlar.

KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida badiiy adabiyotda, milliy ruhning aks etishi doimiy e’tiborda bo‘lgan masalalardandir.Chunki adabiyot millat va uning taqdiridan, umumbashariy ahamiyatga molik fikr va g‘oyalar ifodasidan chetda bo‘la olmaydi. Badiiy adabiyotda milliy ruh masalasi ijodkor qalb prizmasidan o‘tgan holda namoyon bo‘lgani bois ayni masalani muallif bilan uzviy bog‘liq holda tekshirish masalaning tub mohiyatiga etish imkonini beradi. Natijada ijodkor laboratoriyasining o‘ziga xos jihatlari oydinlasha boradi. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu mavzuning nechog‘liq dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlab aytganidek:“...adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor” ekanini unutishga bizning aslo haqqimiz yo’q [1]. Buyuk shoirimiz Cho‘lpon ta’biri bilan aytganda, “Adabiyot yashasa - millat yashar. Adabiyoti o‘lmag‘on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishtirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur. Inkor qilg‘on millat o‘zini inqirozda ekanin bildirur”. [2]

Adabiyotshunoslikda milliylik masalasi so‘nggi yillarda insonlar ruhiyati va ongidagi o‘zgarishlar natijasida kun tartibidagi asosiy masalalardan

Compiled on: October 3, 2025.
Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) 4.0 license.

biri bo‘lib qoldi. Bu hol milliy qadriyatlarimizni badiiy-estetik tamoyillari jihatidan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Millat ruhini aks ettiruvchi yetuk asarlarni chuqur va xolisona tahlil qilish bugungi adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifalardandir.

Jahonda o‘quvchilarni milliy, umummadaniy va umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda ijtimoiy-madaniy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Bu orqali o‘quvchilarni vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lishga o‘rgatish, ularni badiiy va san’at asarlarini tushunishga yo‘naltirish, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni bilishlariga qaratilgan pedagogik jarayonni takomillashtirish asosida milliy va umummadaniy kompetensiyani shakllantirish zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

Dunyoning rivojlangan ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida milliy va umummadaniy kompetensiya tarbiyasini takomillashtirish va bu orqali o‘quvchilarda vatanga sadoqatlilik, fidoyilik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatda bo‘lish, badiiy adabiyot va san’at tarbiyasi asosida ulug‘vorlik shaxsiyatini tarbiyalash, tolerantlik va bag‘rikenglik dunyoqarashini shakllantirish asosida o‘zgalarning e’tiqodi, qadriyatlari, yashash tarzi, urf-odat va an’analarini hurmat qilishga o‘rgatishning samarador mexanizmlarini ishlab chiqishga doir ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Buning uchun esa o‘quvchilarda milliy va umummadaniy kompetentlikni tarbiyalash, ularda ijtimoiy-madaniy bilim va ko‘nikmalarni, qadriyatli munosabatni, tolerant tafakkurni rivojlantirish tizimini takomillashtirish zarurati yuzaga chiqmoqda. Shuning uchun ham o‘quvchilarning milliy va umummadaniy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini takomillashtirish, pedagogik imkoniyatlarini va shart-sharoitlarini yaratishga doir ko‘plab ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham “yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, ularni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mana shunday vazifalarni amalga oshirish uchun o‘quvchilarda milliy va umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish tizimini takomillashtirish vazifalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

METODLAR

Sharq allomalari va mutafakkirlarining ta’lim – tarbiya, madaniyatning turli yo‘nalishlarida yaratgan risolalarini, asarlarini o‘rganib, tahlil qilish va muhokama qilish, ular tomonidan yozilgan ilmiy meros butun dunyoda ilm, fan va madaniyatning deyarli barcha sohalari taraqqiyoti uchun zamon bo‘lganligini asoslash va u orqali o‘sib kelayotgan yosh avlodning ongida, shuurida milliy g‘urur, iftixor, Vatanga sadoqat, yurtga mehr – muhabbat tuyg‘ularini kamol toptirish adabiyot ta’limi oldiga qo‘yilgan dolzarb masalalardan biridir. Adabiyot muallimi ana shunday buyuk allomalarning ijodini o‘qitish orqali, o‘quvchilarda sharqona tarbiyani shakllantira boshlaydi.Sharqona tarbiya tushunchasi Sharq mamlakatlari xalqlari xususan bizga ham tegishli bo‘lgan fazilatlarni o‘zida namoyon etadi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, moddiy va ma’naviy madaniyat maskanlari qadim zamonlardan beri Yaqin, O‘rta va Uzoq Sharq mamlakatlaridir [3].Sharq xalqlarining barchasiga xos bo‘lgan fazilatlar mavjud bo‘lib, ular qatoriga xalqlarning vazminligi, sabr-toqatligi, ijtimoiy muammolarni kelishuv yo‘li bilan hal etish, mehribonlik, birdamlik va boshqalar kiradi. Insoniyat hayotida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan bunday o‘zbekona xislatlar insonni ma’naviy jihatdan tarbiyalab boradi. Ma’naviy jihatdan yetuk bo‘lgan insonning farzandi ham tarbiyali ham barkamol bo‘lib voyaga yetadi.

Biz bilamizki, o‘zbek xalqi azaldan kamtarligi, bosiqligi, qanoatliligi, hayoliligi bilan har doim boshqa xalqlardan ajralib turadi. “Kamtarga kamol, manmanga zavol” degan naql bejizga aytilmagan. Alisher Navoiy o‘zining “Hayrat ul abror” dostonida: “ Agar senga osmonning kuch - g‘ayrati nasib bo‘lsa ham , yer yuzida kamtarlikni

tanla. G'am –g'ussa yuki seni tog'dek ezib tursa ham, uning ostida tuproqdek tura ber. Boshingga toshlar yomg'irdek yog'ilsa ham binafsha kabi boshingni yuqori tutib tura ber" [4]. Shoir bu jumlalarni keltirish orqali yoshlarni takabburlikdan, manmanlikdan qaytarishga ishora qilgan. Aynan maktab darsliklarida Navoiyning ushbu pandnoma ruhidagi asarining keltirilishi ham bejiz emas. Biz Navoiyning qaysi asariga murojaat qilmaylik ularda har doim sharqona tarbiyaning nafasi ufurib turadi. Hattoki Navoiyning qit'a, tuyuqlarida sharqonalikni, komil inson bo'lishga davat qilinganini ko'rishimiz mumkin.

Ota-onaning ko'nglini olish, har doim xizmatida shay turish, ko'ziga tik qaramaslik har bir farzand uchun ham farz ham qarzdir. Ularning duolarini olgan farzandlar hech qachon kam bo'lmaydilar. Alisher Navoiy hazratlarining " Otang oldida boshingni fido qilib, onang uchun jismingni sadaqa qilsang arziydi" degan nasihati barcha yoshlarning shiori bo'lishi, amaliy dastur etib berilishi lozim. Afsuski, hayotda bunga amal qilmaydigan kimsalarning topilishi achinarli holatdir. Asrlar mobaynida shakllangan va hayotimiz mazmuniga aylanib qolgan insoniy fazilatlar va qadriyatlar har doim alohida qimmatga egadir. Jumladan, sabr –toqatlik, qanoatlilik. "Sabr qilsang g'o'radan halvo bitadi" degan naql ham bejiz aytilmaganligi barchamizga ayondir. Ushbu qanoatlilik timsolini biz O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridagi "Qanoat" hikoyasi qahramoni misolida ko'rishimiz mumkin. Hikoyada o'zbek ayolining matonati, barcha narsaga ko'nikib ketishi sabr – qanoatlilik fazilatlari ulug'langan bo'lsa, hikoyaning ikkinchi qahramoni "Kelinoyi" deb murojaat qilinadigan ayol orqali noshukrlik, barcha narsaga noliyverish singari salbiy fazilatlar qoralangan. Biz mana shu singari hikoyalar, qissalarni bolalarga o'qitish orqali ularning ongida salbiy va ijobiy fazilatlar haqida tushunchalarni shakllantira olamiz. Xalqimizda "Qanoatli odam – odamlarning yaxshisidir, qanoatli odam boylarning boyidir" degan ibratli fikrlar bejizga aytilmagan.

Darhaqiqat, xalqimiz azal – azaldan axloqiy fazilatlarga boy xalqlardan biri bo'lgan. Ajdodlarimiz farzandlarini tarbiyalar ekanlar, ularning xulq-atvoriga, gap-so'zlariga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutishlari, nimalar haqida fikrlashib, kimlar bilan muloqotda bo'layotgani, o'z fikr-mulohazalarini qanday so'zlar orqali ifodalashga urunyotganiga juda katta e'tibor qaratganlar. Ularning ongida sog'lom fikrlarni, milliylikni shakllantirishda badiiy adabiyotdan unumli foydalanganlar.

Shoir erkin Vohidovning quyidagi she'riga e'tibor qarataylik. Unda o'zbek millatiga xos mahalla tushunchasi ayrim xalqlar, xususan G'arb kishisi uchun butunlay tushunarsiz ekani haqid yozilgan. Shoir "O'g'riga nasihat" she'rida jamiyatning ana shu uzviga doir odatlarni birma-bir aytib "noligan" otaxon tilidan "esi butun o'g'rilar zinhor-bazinhor" mahallaga yaqin yo'lamasligini maslahat beradi:

Mahalla ham zamonbop
Bo'la qolsa qaniydi...
Bemazalar hammasi
Bir-birini taniydi.

Shuning uchun ham har bir uchragan salom beradi – alik olish shart. Alik olgan baloga qoladi: "Yo'l bo'lsin", deb avvalo To'sib olar yo'lingni. Yetti pushting so'roqlab, Ezg'ilaydi qo'lingni". Tabiiyki, bu hol el ko'zini shamg'alat qilishga odatlangan o'g'riga ma'qul emas. Odatda, u hech kim bilan ko'rishmasligi, biror kishi uni tanimasligi kerak. O'zbek mahallasida esa buning iloji yo'q. Mana, o'zbek xarakteriga xos xususiyatlar:

O'rlab uyga etaklar,
Mehmon qilar osh bilan.
Bundan urgani yaxshi
Boshginangga tosh bilan..

Umumta'lim maktablarining 5-7-sinf Adabiyot darsligida berilgan lirik hamda epik asarlar, undagi obrazlarning milliy ruhning poetik voqelanishidagi yetakchi xususiyatga ko'ra quyidagicha guruhlarga ajratdik:

Inson obrazi vositasida milliy kompetensiyani rivojlantirish	Rahmat Fayziy "Hazrati inson" romani
Do'st obrazi vositasida milliy kompetensiyani rivojlantirish	
Ota-ona obrazi vositasida milliy kompetensiyani rivojlantirish	"Nido"
Bola obrazi vositasida milliy kompetensiyani rivojlantirish	"Shum bola"

Bu obrazlarda milliy ruh, o'zbekona nafas yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, uning birgina Inson obrazi ham milliy, ham umumbashariy kuchga ega ekanligi bilan o'zbek adabiyotida alohida o'ringa ega.

Adabiyotda inson obrazi haqida so'z ketganda

har bir she'riyat ixlosmandining ko'z o'ngidan, eng avvalo, Erkin Vohidovning "Inson qasidasi" o'tadi. Shoirning nazdida inson yaratiqlar ichida eng ulug'i va sevimlisidir:

Sobit-ul sayyorada, inson o'zing, inson o'zing,
Mulki olam ichra bir xoqon o'zing, sulton o'zing.

Ijodkor nazdida, inson - buyuklik timsoli. Olloh uni buyuk qilib yaratgan. Ayni she'rning mazmuni inson obrazining ulug'ligiga qaratilganini tilshunoslar ham alohida ta'kidlaydilar: "Har misrada "o'zing" so'zi takrorlanib, uning takror holda qo'llanishi ma'noni ta'kidlaydi, kuchaytiradi. Bu she'rda "o'zing" so'zi yordamida inson fenomeniga urg'u berilgan, unga e'tibor qaratilib, uning qadr-qimmati, olamdagi, jamiyatdagi o'rni alohida ta'kidlangan" [5]. Ammo Ollohning eng ulug' yaratig'i tiriklik ko'yida o'zining asl vazifasini unutadi. Tirikchilikning quliga aylanadi. O'zining qudratidan mosuvo bo'ladi.

O'zbek adabiyotida yaratilgan asarlarda do'st obrazi alohida ahamiyatga molik va tom ma'nodagi milliy xarakter tashuvchi obraz hisoblanadi. Umumta'lim maktablarining 5-7-sinf Adabiyot darsligidan o'rin olgan bir qator she'riy hamda nasriy asarlarda do'stlik, sadoqat, xiyonat haqidagi qarashlar o'zbek millati xarakterining o'ziga xos tarzda yanada ravshanroq ifodalangani jihatidan ham qimmatlidir.

Maktab Adabiyot darsligidan o'rin olgan Erkin Vohidovning badiiy ijod namunalarida milliy ruhning badiiy obraz orqali ifodalanishida ota-ona obrazi alohida ahamiyatga ega. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu obrazlar tom ma'noda o'zbek ota-onasi timsolidir. Ularda o'zbek xalqiga xos eng milliy jihatlar bo'y ko'rsatadi. Ota va ona obrazi o'zbek adabiyotida E.Vohidov ijodida o'zining chinakam badiiyatini namoyon etdi deyish mumkin. Bu obrazlarning eng go'zal namunasi shoirning "Nido" dostonida uchraydi va to'laligicha milliy qiyofa kasb etadi. Aslida dostonning o'zi to'laligicha o'zbek hayotini, uning maqsad va ruhiyatini o'zida aks ettiruvchi asardir. Unda shoir qo'llagan ifodalar, til va uslub milliy ruhni yorqin tarzda aks ettirishga yordam beradi. Asarning milliy hususiyatlari haqida Sh. Nazarxonova quyidagicha fikrlarni bildiradi: "Doston matnida maqol (Otang bolasi bo'lma, Odam bolasi bo'l; Ustunga zo'r kelar qulasa ustun), duo (Qosh ko'zlaring otangga o'xshar... O'xshamasin umring, iloyim), bolalar so'z o'yinlari (Tarqalamiz uy-uyigayu tepa to'yga) kabi folklor janrlari bir butun holatda birlashadilar. Maqol ohangida hikmat, duo ohangida niyat yaraladi" [6]. O'z-o'zidan E.Vohidov ijodining gultoji hisoblanmish "Nido" dostonida milliy qadriyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, dostondagi ota va ona timsoli tom ma'nodagi o'zbek ota-onalarining timsolidir.

Dostonda ona obrazi vositasida fidokor, umrini farzandlariga baxshida etgan o'zbek ayoli qiyofasi namoyon bo'lar ekan, shoir muhabbat, mehr, sadoqat, fidoiylik haqidagi qarashlarini ayni shu obraz zamiriga singdiradi. Onaning farzandiga aytgan:

Orom ol, men senga
Allalar aytay.
Tongda peshonangdan

O'pib uyg'otay, - misralarini o'qib, har bir o'quvchining ko'z o'ngidan erta tongda farzandlari peshonasidan o'pib uyg'otadigan onasi o'tadi va ayni shu holatdan har bir o'zbek o'z oilasining qiyofasini ko'z oldiga keltiradi. Ona tilidan aytilgan:

Sen uchun, men uchun,
O'z uchun emas,
Faqat o'zbek va yo
Rus uchun emas,
Butun Yer – undagi
Bor avlod uchun,
Dunyoda eng qutlug'
E'tiqod uchun
Uzoq o'lkalarda
Qon kechib hozir
Otang hayot uchun

Jang qilayotir, - kabi misralarda qaysidir ma'noda butun onalar va hatto butun millat dunyoqarashi namoyon bo'ladi. Zero, o'zbek xalqiga xos bag'rikenglik, o'zaro mehr-muhabbat ona tilidan bayon etiladi. Bu o'rinda ona obrazida milliy ruh yashaydi. U farzandining yorug' kelajagiga ishonch bildiradi, ona qalbi bilan uning baxtli kunlariga ishonadi.

Sen bizlar ko'rganni
Ko'rmagaysan hech,
G'urbat yo'llaridan

Yurmagaysan hech, - misralarida nafaqat porloq kunlar umidi, qolaversa duogo'y o'zbek onasi qiyofasi ifodalanadi. Asardagi ona obrazi xususida T.Dadaboeva quyidagicha fikrlarni bildiradi: "Hayotning eng og'ir damlarida ham yonimizda turguvchi vafodor do'stimiz – shubhasiz,

onalarimizdir. Uning ham ayni damda o‘z g‘am-tashvishlari bor. Shunga qaramay, ko‘nglidagi azob-uqubatlar orasidan bosh ko‘targan mehr-muhabbat g‘unchasini farzandiga tutishda o‘zida kuch topa olgan onaga tasannolar aytging keladi” [7].

Dostondagi markaziy timsollardan biri Ota obrazi ham asarda o‘ziga xos tarzda aks etadi. Shoir o‘ziga xos uslubda ota qiyofasini chizadi. Dostonda ota deyarli so‘zlamaydi. Lekin asar boshidan so‘ngigacha ota obrazidagi eng nozik jihatlarni o‘quvchi anglab boradi. Ota obrazidagi mardlik, vatanparvarlik, odamiylik asar mazmunida yashaydi. Ota obrazi urush davridagi chinakam o‘zbek otalarining qiyofasini o‘zida aks ettiradi.

Bobolarning hikmati
Hayotga yorug’ yo‘ldir.
Otang bolasi bo‘lma,
Odam bolasi bo‘l, der.
Bu so‘zni ilk bor menga
O‘rgatgan otam edi.
Men otam farzandiman,
U esa odam edi.

Xalqimizda: “Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l”, degan maqol bor. Ijodkor ayni shu maqoldan ota obrazini yaratishda maqsadli foydalanadi va maqolni badiiy davom ettiradi: “Men otam farzandiman, U esa odam edi”. Ayni shu ifodada otaning chinakam qiyofasi namoyon bo‘ladi.

Ota-odamiylik timsoli. Farzand barcha fazilatlarni o‘z otasidan olgan va o‘rgangan. Asarda ijodkor ota obrazini yaratar ekan, ayni shunday boshqalarning tilidan otaning milliy qiyofasini ochib beradi. “Onam boshimni silab, O‘xsha degan otangga”, “Mening mardlik maktabim, Jonfido otam edi” kabi ifodalar ota obrazining to‘laqonli shakllanishiga asos bo‘ladi. E.Vohidov ijodida ota va ona obrazi o‘quvchi shaxsida milliy kompetensiyani takomillashuviga xizmat qiladi.

“Adabiyot hayot darsligi sifatida o‘z vazifasini muvaffaqiyatli bajarishi uchun juda yuksak estetik qimmatga ega bo‘lishi, ya’ni badiiy jahatdan mukammal va barkamol bo‘lmog’i kerak. Hayotni yuzaki tasvirlagan, chuqur va salmoqli fikrlardan xoli bo‘lgan, sun’iy va uydirma voqealar asosiga qurilgan o‘rtamiyona asarlar hech qachon kitobxonning hayotida biron sezilarli iz qoldirmaydi” [8], deb yozganida Ozod Sharafiddinov naqadar haq ekanligi Vohidovning ayni shu she’rida o‘z ifodasini topgandek bo‘ladi. Zero, bu she’r hayotning chinakam qiyofasini ochib berishi asnosida o‘quvchini tarbiyalaydi, kamolot sari yetaklaydi.

Milliylik qanchalik chuqur va yorqin ifodalansa, unda umuminsoniy xislatlar shunchalik ulug‘ va ta’sirchan qudrat kasb etadi, million-millionlarni insoniylik yo’lida hamkorlikka chorlaydi, qalblar va onglarni birlashtirib ezgulikka, komillikka etaklaydi” [9].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlardagi Bola, Inson, Ota-ona, Do’st kabi obrazlar tom ma’nodagi milliy xarakterga, milliy qiyofaga ega bo‘’lgan obrazlar sirasidan bo‘lib, ularda shoirning Vatan va millat taqdiriga munosabatini, muhabbatini o‘zida namoyon etadi. Muallif an’anaviy obrazlarga yangicha ruh, yangicha g‘oya yuklaydi. Ularda o‘zbek qiyofasi, o‘zbek ruhiyati yashaydi, qolaversa, umumbashariy mazmunni o‘zida aks ettirishi bilan yanada yuksak badiiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий юксалишининг мустаҳкам пойдеворидир / /Халқ сўзи. 2017. 4 авг.
2. Чўлпон. Адабиёт надир?// Садои Туркистон, 1914 йил, 4 июн.
3. Tuxtayev.O.X Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning o‘rni. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent: “Qamar media”, 2022.
4. Келдиёрова Г. Ўзбек бадиий нутқида антитеза.ф.ф.н. дисс.... Т. 2000.
5. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. -Т. Янги аср авлоди. 2011.
6. Назархонова Ш. Эркин Воҳидов достонлприда фольклор оҳанглари.То қуёш сочгайки нур. Т.Ўзбекистон. 2016.
7. Дадабоева Т. Нидо достонида қаҳрамон руҳияти орқали давр муҳитининг ифодаланиши. Э.Воҳидовнинг сўз қўллаш маҳорати.

Республика онлайн илмий амалий конференция материаллари. Гулистон. 2020.

8. Шарафиддинов О. Оламнинг қалби. – Тошкент: Маънавият, 2014.

9. Умуров Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. Т. Халқ мероси. 2004.